OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA

KIRUVCHILAR UCHUN

**R E P I T I T S I O N   T E S T**

# SAVOLLAR KITOBI

*SAVOLLAR KITOBI RAQAMI:* 675

*BLOKLAR:*

Ingliz tili (3.1)
Ona tili va adabiyoti (2.1)
Tarix (1.1)

*+998974567172 raqamiga SMS yuboring va natijangizni bilib oling!*

675*[JAVOBLAR]

***Namuna: 675*ABCDBBDA….***

*Test topshiruvchi:*

*F.I.O.* *IMZO*

***DIQQAT !***

*Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan bo'yicha savollar soni to'liqligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'idagi "savollar kitobi raqami" bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.*

*Savollar kitobida va javoblar varag'ida test topshiruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi to'ldirilganligiga va imzosi qo'yilganligiga e'tibor qarating!*

TOSHKENT – 2018

## INGLIZ TILI

1. **Choose the answer which correctly completes the sentence.**
An explanation will be ... each section of the test.
A) proceeding B) preceding
C) proceeded D) preceded

2. **Choose the answer which correctly completes the sentence.**
She wanted to go to the conference but her boss said she ... the day off from work.
A) had better take B) couldn't take
C) won't be able to take D) could take

3. **Choose the answer which correctly completes the sentence.**
She would have received better service if she ... at the hotel recommended to her by Julie
A) would have stayed B) stayed
C) have stayed D) had stayed

4. They own a motor boat, … ?
A) don’t they B) they don’t
C) do they D) they do

5. She was concentrating … writing the report when the phone rang.
A) with B) on C) of D) for

6. Choose the appropriate antonym.
let
A) disallow B) situate
C) behave D) realize

7. Choose the answer which correctly completes the sentence.
I don't feel really awake … I've had a cup of coffee.
A) until B) if C) in case D) after

8. Choose the answer which correctly completes the sentence.
It’s very cold. I think it might . . . for the first time this winter.
A) snow B) snows C) snowing D) to snow

9. Choose the best answer.
... our engineers there are many who have travelled a lot.
A) Between B) Together
C) Among D) A lot of

10. Choose the best answer. That is . . . story I have ever heard.
A) the most incredible B) the more incredible
C) most incredible D) incredible

11. **Choose the answer which correctly completes the sentence.**
... we now know that swallows migrate, there are still unanswered questions.
A) Although B) So C) So that D) Because

12. **Choose the answer which correctly completes the sentence**
-It is pouring with rain .look
- It`s ok I … you my umbrella.
A) lent B) will lend
C) am lending D) am going to lend

13. **Choose the answer which correctly completes the sentence.**
The growing of plants and animals on land for food and ... products is agriculture.
A) another B) the others
C) others D) other

14. Choose the answer which correctly completes the sentence.
Andrew: I haven’t got many friends.
Jessica: . . . . And I would really like a good friend.
A) So have I B) Neither did I
C) Neither have I D) I didn’t either

15. Choose the answer which correctly completes the sentence.
I wonder whose car it is. Is it . . . or is it . . . wife’s?
A) my / his B) her / his
C) his / her D) yours / your

16. Choose the answer completes the sentence.
He asked, "Does John know where we are going?"
He asked if John ... .
A) known where are we going
B) knew where were we going
C) knows where we are going
D) knew where we were going

17. Choose the answer which correctly completes the sentence.
Someone’s always leaving that window open. Who . . . it open this time?
A) has left B) leaves
C) leaving D) leave

18. **Choose the correct answer.**
Reducing speed limits should … fewer deaths on the roads.
A) reward B) drop in
C) lead to D) hand in

19. **Choose the answer which correctly completes the sentence.**
The teacher would rather Diana ... to music in the class.
A) isn't listening B) doesn't listen
C) to listen D) didn't listen

20. **Choose the answer which correctly completes the sentence.**
... of the shops in this street is open after 11 p.m., but there's hardly ... on the street at that time anyway.
A) None/anyone B) Any/someone
C) Some/no one D) Neither/everything

21. **Choose the answer which correctly completes the sentence.**
David’s the only one of us … has a computer.
A) where B) when C) whom D) who

**Read and then choose the correct answer to questions 22-24.**

New research suggests that among smokers who get lung cancer, women are nearly twice as likely as men to develop the most deadly form of the disease. Experts say that the British study represents the first time scientists have discovered a significant difference between the sexes in the risk of small-cell lung cancer.

Virtually always caused by smoking, it is the hardest form of lung cancer to treat successfully. The study showed that women under 65 were 1.7 times more vulnerable than men to small-cell lung cancer, which spreads so rapidly that by the time it is diagnosed, it is usually too late to operate.

22. **The most deadly form of lung cancer** ....
A) is more common in Britain than anywhere else
B) is more likely to develop in men than in women
C) tends to spread too quickly to be treated by surgery
D) accounts for 17 percent of deaths among women under the age of 65

23. **It has only recently been discovered that small cell lung cancer** … .
A) also affects women as frequently as it does men
B) is the worst type of cancer
C) can be successfully treated
D) is more common among women than among men

24. **It is stated in the passage that** ....
A) the chance of overcoming cancer is the lowest for patients with small-cell lung cancer
B) British scientists were the first, to discover small-cell lung cancer
C) new research into cancer is good news for anyone suffering from the disease
D) scientists are hopeful of finding a cure for small-cell lung cancer

Laws are the collection of rules by which any state maintains order within a society. In Great Britain, the law-making process is conducted by Parliament. Proposed new laws are presented as Bills and if, after debate, they are accepted by a majority vote in the House of Commons, they duly become law. In Great Britain, as in most countries, there are several distinct types of laws. Constitutional law is concerned with the processes of the government itself Company law deals with the operation of many of the nation's commercial and financial activities. These are branches of State law, that is, laws made by acts of Parliament. Common law, by contrast, is based on past decisions taken by the courts on various issues.

25. **The aim of laws, as described in the passage, is …….. .**
A) to increase the government's authority over the people
B) to protect the government and people from chaos
C) to secure the people's control of the government
D) to punish people who insist on violating them

26. **The author informs us that Constitutional law………….. .**
A) cannot be changed by simple acts of Parliament
B) is composed of several distinct types of Bills
C) causes great concern to Members of Parliament
D) is related to the way the government does its job

27. **As is stated In the passage, the difference between State and common laws is that………. .**
A) State laws only effect Members of Parliament, not common people
B) common law was only valid in the past, while State law is still used
C) only State laws actually have financial consequences to the people
D) the former are made by acts of Parliament, the latter, by the courts

**Read and then choose the correct answer to questions 28-30.**

In order to avoid the traditional form, writers like the Irishman James Joyce tried to find other structures around which to build their novels. Joyce broke away from the regular beginning, middle, and end technique of earlier writers with his novel 'Ulysses'. Using the Greek mythology contained in The Odyssey 1, written by Homer , Joyce devised a completely new technique which combined Greek mythology with tales of modern life. In the novel, the adventures of Homer's Ulysses are paralleled to the happenings of one day in the life of a group of characters in Dublin, Ireland. As this novel shows, if a writer actually describes every single thing a character does throughout one day, that one day can easily produce a whole long novel'.

28. **James Joyce's novel 'Ulysses'** … .
A) revolutionized classical Greek literature
B) was meant to be different from novels written up to that time
C) was a modern translation of Homer's 'Odysseus '
D) is a traditional novel with a beginning, middle and end

29. According to the passage, **'Ulysses' reflects similarities between** ...
A) the lives of a mythological figure and a group of contemporary people
B) the moral values of Homer's day and those of Joyce's own
C) the writing techniques used by Homer and James Joyce
D) the lives, over a number of years, of a number of people in Dublin

30. The passage states that **the action of the novel takes place** ....
A) in a single day

B) in ancient Greece
C) over a long period of time
D) in a traditional setting

## ONA TILI VA ADABIYOTI

31. Qaysi sinonimlar qatorida “begona” so‘z mavjud?
A) g’ubor, chang, gard
B) fig‘on, nola, faryod, afg’on
C) yig’lamoq, bo‘zlamoq, ho’ngramoq, uvvos solmoq
D) makr, xiyla, nayrang, aldov

32. Kishilarning undov so‘zlar orqali ifodalangan his-hayajonini, buyruq-xitobini tasvirlash uchun undov so‘zlarga qanday so‘zlar qo‘shilib kelib, qo‘shma fe’llar hosil qiladi?
A) demoq, solmoq, urmoq, tortmoq
B) qaramoq, demoq, qaytmoq, ayttirmoq
C) aytmoq, qilmoq, tashlamoq, qotmoq
D) uzmoq, urmoq, turmoq

33. Qaysi javobda ot + ot kompozitsiyasidan hosil qilingan, narsani boshqa narsaga qiyoslash ma’nosini anglatuvchi qo‘shma sifatlar ko‘rsatilgan?
1) ko‘zoynak; 2) sheryurak; .
3) oybolta; 4) qo‘yko‘z;
5) shirinso‘z; 6) toshbag‘ir.
A) 2, 4, 6 B) 2, 4, 5, 6
C) 1, 2, 3, 6 D) 1, 2, 3, 4, 6

34. 1) -larcha; 2) -don; 3) -shunos; 4) -ona; 5) ser-; 6) -kash; 7) -dor
Berilgan qo‘shimchalardan qaysilarida shakldoshlik so‘z
yasovchilar o‘rtasida kuzatilmaydi?
A) 1, 3, 4, 5 B) 1, 3, 4, 7
C) 2, 6, 7 D) 1, 2, 3, 5

35. Quyidagi qaysi so'zlarda nuqtalar o'rnida bo‘g‘iz undoshi yoziladi?
1) ja...d; 2) da...lsiz; 3) a...loq; 4) mu...okama; 5) ...ushyorlik; 6) a...moq.
A) 1, 2, 4, 5, 6 B) 1, 4, 5, 6
C) 1, 2, 3 D) 1, 3, 5, 6

36. Qaysi maqol kesim, ega, to‘ldiruvchidan tashkil topgan?
A) Qarindoshingni yomonlab, Qaydan tug`gan toparsan.
B) Aqlsiz do‘stga kular, Aqlli do‘stini suyar.
C) Nomardga yalinma, Bir baloga chalinma.
D) Issiq kiyim tanni ilitar, Issiq so‘z jonni ilitar.

37. Biz so‘zning asosiy qismimiz, sizlar esa qo‘shimchalarsiz.
Ushbu gapda nechta munosabat shakli omonimlik xususiyatiga ega?
A) 2 ta B) 1 ta C) 4 ta D) 3 ta

38. «Behbud» so'zining ma'nosini toping.
A) go'zal, latofatli B) kasb, hunar
C) ayon, ravshan D) sog'lomlik

39. *chorpoya, olov, buqa* so‘zlari qaysi tilga tegishli
A) uyg‘ur tili B) arab tili
C) tojik tili D) o‘zbek tili

40. **i** tovushi ham torlik belgisi ham lablanmaganlik belgisi bilan qaysi tovushga zidlanadi?
A) a ga B) u ga C) e ga D) o` ga

41. Hayotimda kim uchundir foydali inson bo‘lsam, bu mening yeng katta
yutug‘imdir. 2. Ikkinchi masala ancha jiddiy, shuning uchun u maxsus o‘rganishni talab qiladi. 3. Shuni bilingki, vaqtning qadriga yetish, uni behuda o‘tkazmaslik lozim. 4. Ular mening aytganimni qilishadi, chunki men oilamizning kenjatoyiman. Ushbu qo‘shma gaplarning qaysilarida ergash gapning kesimi ot-kesim hisoblanadi?

A) 2, 4 B) 1, 2, 3, 4
C) 1, 2, 4 D) 1, 3, 4

42. Badiiy uslubning kommunikativ vazifasi deganda nima tushuniladi ?
A) o’quvchiga ta’sir qilish
B) muayyan ijtimoiy masalalarga faol munosabatdabo’lishlik
C) tasviriy ifodalarni qo’llash
D) ma’lum voqea –hodisa haqida axborot berish

43. Quyida berilgan so'z birikmalaridan qay biri turg'un birikma bo'ladi?
1) boshiga yetdi; 2) qulog'iga quydi; 3) o‘z yog'ida qovurildi; 4) yaxshi ko'radi.
A) 1,2,3,4 B) 3,4 C) 2,3,4 D) 2,4

44. Quyida berilgan so'zlarning nechtasi o'zaro omonim asoslarga omonim qo'shimcha qo'shilishidan hosil bo'lgan omonim so'zlarga misol bo'la oladi?
tilini, chekim, terim, oqar, bo'g'ma.
A) 5 tasi B) 4 tasi C) 3 tasi D) 2 tasi

45. Tarkibida ravish o‘rnida kelgan sifat mavjud bo‘lgan so‘z
birikmasini aniqlang.
A) ko‘p odam B) yaxshi kiyingan
C) tez kelmoq D) tiniq daryo

46. «Kimki tez-tez dalalarga chiqib tursa, bahri-dili ochiladi, tanasiga quvvat yuguradi». Ushbu murakkab qo'sh gapda qanday ergash gap qatnashgan
A) to'ldiruvchi ergash gap B) aniqlovchi ergash gap
C) hol ergash gap D) ega ergash gap

47. Nechta so‘zda nuqtalar o‘rniga chuqur til orqa undoshi yoziladi?
…abash, …abib, …avas, …ijja, …ijjalab, …ijil, … aspo‘shlamoq
A) 5 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 6 ta

48. Ega ergash gapli qo‘shma gapni aniqlang.
A) Yo siz keeling, yo men boray.
B) Bu bo‘stonda do‘stlar bermasa ko‘mak,
Nasib bo‘lmas maqsad gulini termak.
C) O‘qish davrida Musaqulov qayerda bo‘lsa, Mutalov ham shu yerda bo‘lar edi.
D) Kim mehnat qilsa, u rohat ko`radi.

49. Quyidagi matn qaysi uslubga xos? *Bo'yginangdan onang o'rgilsin!*
*Baxtingga tasaddiq bo'lay o'zginam!*
*Aspiranturang bittimi?*
A) ommabop (publitsistik) uslubga
B) so'zlashuv uslubiga
C) ilmiy uslubga
D) badiiy uslubga

50. Qaysi qatordagi so'zlarda pastki lab bilan yuqori tishlar orasida hosil bo'ladigan tovush ishtirok etgan?
A) bo'g'iz, qadrdon B) puflamoq, shirin
C) astagina, daraxt D) avtomashina, faqat

51. "Bilimli kishi o'lsa ham uning nomi o'chmaydi, ilmsiz kishining o'zi hayot bo'lsa ham, oti o'likdir. Bilimlining biri bilimsizning minggiga teng, ilmli kishilar ilmning qadriga yetadi". Ushbu parcha qaysi asardan?
A) "Devonu lug'ot it-turk" B) "Hibatul -haqoyiq"
C) "Yatimat ad-dahr" D) "Qutadg'u bilig"

52. "Do'nan" hikoyasida qaysi soy haqida so'z boradi?
A) Soy nomi berilmagan B) Yangisoy
C) Bolasoy D) Matansoy

53. A.Navoiy «Hayrat ul-abror» dostonidan olingan o'ninchi maqolatda qaysi daraxt qomatini to'g'ri chekib osubi xazon ofatini ko'rmaydi?
A) Sarv. B) Terak. C) Archa. D) Chinor.

54. Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" asari didaktik adabiyotning qay turiga mansub?
A) nasriy B) she'riy
C) nasriy-she'riy D) "Hayrat ul-abror" didaktik asar hisoblanmaydi

55. Mirkarim Osimning dastlabki qissasi qanday nomlanadi?
A) "Astrobod". B) "Yangi ariq".
C) "Badarg'a". D) "Ulug'bek va Navoiy".

56. "Qutbdagi gunafsha", "Hech qayoqqa olib bormaydigan yo'l" ertaklari J.Rodarining qaysi turkumidan?
A) "Uchtadan oxiri bor ertaklar"
B) "Rim ertaklari"
C) "Telefonda aytilgan ertaklar"
D) "CHippolinining sarguzashtlari"

57. «Shajarayi turk» asarida Chingizxon tomonidan Qarluq eliga yuborilgan elchining ismi kim edi?
A) Barlos Qo'bulay nuyon B) Arslon Qo'bulay nuyon
C) Qoraxon D) O'g'uzxon

58. Qaysi shoir taxallusining ma'nosi "ilohiy ishqdan mast bo'lgan" ma'nosini ifodalaydi?
A) Foniy B) Firog'iy
C) Uvaysiy D) Maxmur

59. "Avesto"da Zardusht she'rlari va ibodat payti ijro etiladigan matnlar nima deyiladi?
A) Gohlar B) Yashtlar
C) Visparad D) Vendidod

60. N.Ganjaviy Iroq hukmdori To'g'rul II ning iltimosiga ko'ra qaysi dostonini yaratadi?
A) "Maxzan ul-asror" B) "Layli va Majnun"
C) "Haft paykar" D) "Xusrav va Shirin"

## TARIX

61. Quyidagi qaysi voqea oldinroq sodir bo`lgan?
A) Fransiyada Sharl de Goll Beshinchi respublika Prezidenti deb e'lon qilindi
B) Iroqda monarxiya qulab, respublika e'lon qilindi
C) Kubada inqilob g`alaba qildi
D) Angliyada birinchi marta vodorod bombasi sinab ko`rildi

62. Xorazmda Otsiz xukmronlik qilgan yillar oralig'ida bo'lgan voqeani aniqlang.
A) 3-Salib yurushlari bo'ldi.
B) Ronkal vodiysidagi seymda Fridrix 1 Barbarossa xokimyati cheklanmagan deb etirof etildi.
C) Milan boshchiligida Lombardiya shaxarlari bosqinchilarga qarshi qo'zg'alon ko'tardi.
D) Mo'g'ullar xukmdori Temuchin tug'uldi

63. Quyida asarlar va ularning mualliflari xato berilgan javobni toping.
A) Roka Takotumi – «Yigirma yil ichida»
B) Naoe Kinosito – «Olovli ustun»
C) Roka Tokutomi – «Yashamagan yaxshi»
D) A. P. Chexov – «Uch opa-singil», «Olchazor bog`»

64. Nechanchi yildan boshlab Turkistonda mustamlakachilar
oddiy fuqarolarni ma'murlarga qarshilik ko'rsatgan taqdirida
bevosita harbiy dala sudiga bera boshladilar?
A) *1893-yildan* B) *1892-yildan*
C) *1891-yildan* D) *1895-yildan*

65. 1946-yil 11-dekabrda …
A) Germaniyaning Bizonda okkupastiya qilingan zonalarini qo`shib yuborish haqidagi ingliz-amerika bitimi imzolandi
B) Ikkinchi jahon urushidagi g`olib davlatlar o`rtasida va Germaniyaning sobiq ittifoqchilari – Italiya, Ruminiya, Vengriya, Finlandiya bilan tinchlik shartnomasining imzolandi
C) Tokioda ikkinchi jahon urushi yillaridagi asosiy jinoyatchilar ustidan sud jarayoni tugadi
D) BMTning bolalarga yordam berish jamgarmasi (YuNISEF) tashkil topdi

66. Quyidagi asarlarni ko'chirgan mashhur xattotlarni aniqlang.
1) "Axloqi Muhsiniy";
2) "Ajoyib at-tabaqot";
3) "Shohnoma".
a) Ahmad Donish;
b) Hamadoniy;
c) Mir Ma'sum Olamiyon.
A) 1-c, 2-a, 3-b B) 1-a, 2-c, 3-b
C) 1-c, 2-b, 3-a D) 1-b, 2-a, 3-c

67. 1947-yil 5-iyunda AQSh davlat kotibi J.Marshall … universitetida so`zlagan nutqida Amerika iqtisodiy

yordami ko`rsatish orqali Yevropani tiklash va rivojlantirish dasturini bayon qildi.
A) Kembrij B) Kaliforniya
C) Garvard D) Oksford

68. 1917-yilda «Sho`roi Islom» tashkiloti ta'sirida Andijonda tashkil topgan tashkilotlar xato berilgan javobni aniqlang.
A) «Hurriyat» B) «Ma'rifat»
C) «Ozod xalq» D) «Ittihodi taraqqiy»

69. Qarluqlar davlati janubda … bilan chegaralangan.
A) o`g`uzlar yurti B) qipchoqlar dashti
C) yag`molar vohasi D) chigil qabilasi yaylovlari

70. Turklar Yoyiq va Itil bo`ylarini egallagan yili Eron shohi kim edi?
A) Xusrav I B) Pero`z
C) Shopur II D) Kubod

71. O`zbekistonda "Ijtimoiy himoya yili " deb e`lon qilingan yili bo`lib o`tgan voqeani belgilang.
A) "GM Uzbekiston" qoshma korxonasi tashkil etildi
B) Marg`ilon shahrining 2000 yilligi nishonlandi
C) O`zbekiston Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatiga qo`shildi
D) Toshkentda Moskva davlat universiteti filiali ochildi

72. O`zbekistonda mashina va mexanizmlar nazariyasi rivojlanishiga katta hissa qo`shgan olim xato berilgan javobni aniqlang.
A) X.A.Raxmatullin B) M.T.O`rozboyev
C) S.Y.Yunusov D) V.K.Qobulov

73. Quyidagi shaharlardan qaysi birining yoshi katta sanaladi?
A) Buxoro B) Termiz
C) Marg`ilon D) Qarshi

74. Rossiyaning Xiva xonligiga hujumi g'arbda qaysi harbiy okrug orqali olib borilgan edi?
A) Turkiston B) Orenburg
C) Mang'ishloq D) Krasnovodsk

75. 1938-yilning 3-noyabrida Yaponiya. . .
A) *Sharqiy Osiyoda tartib o'rnatish haqida deklaratsiya e'lon qildi*
B) *Xitoy hududlariga bostirib kirdi*
C) *Mo'g'uliston Xalq Respublikasiga hujum qild*
D) *Tinch okeanida joylashgan AQSh harbiy bazalariga ig'vogarlik hujumlari uyushtirdi*

76. Quyidagi shaxslarning qaysilarining millati fransuz edi?
1) L.Bonald 2) K.Marks 3) E.Jenner 4) D.Joul 5) O. Balzak
A) 1,2 B) 1,4 C) 1,3 D) 1,5

77. Quyidagi davlatlardan qaysi birining konstitutsiyasi 1924-yilning 20-aprelida qabul qilingan?
A) *Turkiya Respublikasi* B) *Eron*
C) *Germaniya* D) *Fransiya Respublikasi*

78. Meksikada Madero islohotlari xato berilgan javobni toping.
A) Ish kunini 10 soatgacha cheklab qo`ydi
B) Milliy iqtisodni himoya qilishga intildi
C) Chet el kapitalini keng imkoniyatlar yaratdi
D) Ishlab chiqarishda jarima tizimini bekor qildi

79. Rossiya tarixida chuqur iz qoldirgan hukmdor Pyotr I
hukmronligi nihoyasiga yetgan yilda . . .
A) *Kordeyada qirol Yonchjon hukmronligi boshlandi*
B) *Xitoy bandargohlari tashqi savdo uchun yopib qo'yildi*
C) *Nodir Quli afg'on qo'shinini butunlay tor-mor etib, Eronni afg'on qaramligidan ozod etdi*
D) *Tokugava sulolasining eng mashhur davlat arbobi Yosimune hukmronligi boshlandi*

80. XVIII asrda Zarafshon daryosidan chiqarilgan (3-4 chaqirim uzunlikdagi) ariqlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
1) Xurmo; 2) Qozonariq; 3) Toyman; 4) To'g'uzariq; 5) Sarazm; 6) Oqariq
A) *2, 4* B) *1, 5* C) *1, 2* D) *3, 6*

81. Bir yilda tashkil etilgan oliy o`quv yurtlarini aniqlang.
A) Toshkent islom universiteti, Turin politexnika universiteti
B) Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Moskva Davlat universiteti filiali
C) Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Xalqaro Vestminster universiteti
D) Moskva Davlat universiteti filiali, Turin politexnika universiteti

82. Bir yilda bo`lgan voqealarni aniqlang.
1) Sparta davlatiga asos solindi. 2) Hindiston hududiga Oriylar bostirib kirdi.
3) Yunoniston hududiga axeylar bostirib kirdi. 4) Choson qirolligiga asos solindi
5) Yunonlar Troyaga bostirib kirdilar 6) Xamurappi hukmronligi boshlandi.
A) 1,5 B) 2,4,6 C) 1,3 D) 1,4,6

83. Yangi Urganch, Xazorasp, Xonqada dehqonlar qo`zg`oloni bo`lib o`tgan yili …
A) Munavvarqori "Xurshid" gazetasini chiqardi
B) Nurillaboy saroyi qurilishi boshlandi
C) A.Avloniy "Shuhrat" gazetasiga asos soldi
D) Orenburg-Toshkent temiryo`li qurildi

84. Imomqulixonning elchisi Odambiy Moskvaga elchi bo`lib brogan yili …
A) Arab Muhammadga qarshi o`g`illari ikkinchi marta isyon ko`tardi
B) Axsikatda zilzila bo`ldi
C) Buxorolik savdogarlar Qozon shahrida 670 kiyimlik mato sotgan

D) Samarqandda Sherdor madrasasi qurilishi boshlandi

85. Quyidagi qaysi voqea Fransiyada Lyudovik IX qirolligining dastlabki davrida ro`y bergan?
A) Ivan III Oltin Ordaga boj-yasoq to`lashdan bosh tortdi
B) Sulton Husayin Xuroson taxtini egalladi
C) Lionda birja tashkil topdi
D) “Jamiyat baxt-saodati ittifoqi” tuzildi

86. Mo`g`ullar bosqini davrida Xorazmshoh yakkalanib qolib, undan qaysi viloyat hokimlari yuz o`girishadi?
A) Yorkent va Yettisuv B) Badaxshon va Balx
C) Eloq va Norin D) Qunduz va Badaxshon

87. Urush yillarida O`zbekiston teatrlarida sahnalashtirilgan operalar to`g`ri berilgan javobni toping.
A) «Bosqinchilarga o`lim», «Jaloliddin»
B) «Ulugbek», «Mahmud Tarobiy»
C) «Sherali», «Mahmud Tarobiy»
D) «Davron ota», «O`zbekiston qilichi»

88. Quyidagilarni to’g’ri tartibda joylashtiring
1. … 1938-yil may oyida ichki kuchlar hukumatga qarshi isyon ko’tardilar;
2. … davlatningi qtisodiyotga ta’sirini kuchaytirishga qaratilgan qonunlar qabul qilindi;
3. … repressiya va terror to’lqini pasaydi,fashizm jilovlandi,AQSH bilan yaqinlashish yo’li to’sildi;
4. … amerikaparast konservatorlar hukmronligiga qarshi liberallar qo’zg’alon ko’tardi;
5. … konservator oligarxiya tartibi o’rniga hokimyatga liberal islohotchilar keldi;
a) Kolumbiyada
b) Brazilyada
c) Kubada
d) Argentinada
e) Meksikada.
A) 1-c,2-d,3-e,4-b,5-a ;
B) 1-e,2-b,3-c,4-a,5-d ;
C) 1-e,2-b,3-d,4-c,5-a.
D) 1-d,2-e,3-c,4-a,5-b ;

89. Afrikada yashovchi aholini qulga aylantirib, Amerikaga olib ketish boshlangan davrda yuz bergan voqeani aniqlang.
A) Samarqanddagi Registon ansambli shakllanishi tugallandi.
B) Choson qirolligi o‘z taraqqiyoti cho‘qqisiga ko‘tarildi.
C) Turkiyada qishloq xo‘jaligi inqiroz boshlandi.
D) Sin imperiyasining istilochilik qudrati zaiflashdi.

90. Jarqo`ton manzilgohi vujudga kelgan asrda …
A) Yunonistonga doriylar bostirib kirdi
B) Hindistonga oriylar bostirib keldi
C) Xeops piramidasi qurilgan
D) Hammurapi hukmronlik qilgan